

MAHORATLI PEDAGOGNING MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDAGI O'RNI.

Abduxoliqova Moxihur Abdurasul qizi

*Do'stlik tumani, 16-son "Saodat" nomli
DMTT da tarbiyachi.*

Annotatsiya: Pedagog - pedagogik jarayon qonuniyatları va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Ushbu maqolada hozirgi zamon tarbiyachisining pedagogik maxorati xaqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: individual xususiyatlar, ta'lim tizimi, ta'lim-tarbiya, ijodiy yondashish, tabiat va jamiyat, barkamol, ijtimoy faol bo'lishi, pedagogik texnika, kommunikativlik layoqati, intellektlar to'plami.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotida, yosh avlodni bilimlar berish, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni tiklash jahon madaniyati, milliy madaniyatimiz durdonalari bilan tanishtirish, ularni jismoniy sog'lom ma'naviy etuk qilib tarbiyalashdek vazifalar qo'yildi. Pedagoglik arafli, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi bo'lismi uchun pedagogik nazariyani egallahning o'ziga etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiyligini qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalari bayon etiladi, yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktabgacha ta'lim hayoti kichik pedagogik jarayon bo'lib juda xilma - xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa pedagogdan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi. Pedagoglik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra individual xisoblanadi. Xar bir pedagogning hayotiy o'rni o'z ishining ustasi bo'lishi, juda ilg'or, bilimdon yoki o'z ishini moxirlilik bilan bajaruvchi deb ifodalanadi. Pedagog - pedagogik jarayon qonuniyatları va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari, uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda ta'limning sifatini baholash yagona tizimlarini yaratish yo'lli bilan ta'lim sifatining qiyosiyligini ta'minlash yagona ta'lim makonini shakllantirish g'oyasi atrofida jahon mamlakatlarini jipslashtirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimini boshqarish davlat siyosati sohasiga aylangani tufayli, ko'pgina mamlakatlarning hukumatlari ta'lim tizimini rivojlantirish uzoq muddatli va istiqbolli dasturlarini ishlab chiqmoqdalar. Tarbiyachi yosh avlodimizni barkamol, etuk





farzandlar qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining ilmiy, siyosiy etukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'limg-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borishiga yordam beradi. Tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo'lishi, umumiy va matabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan xolda yondashishi talab etiladi. Pedagogik tarbiyachining xar bir faoliyatni taxlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi.

Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo'lism, pedagogik texnika, nut1, yuz, qo'l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqr o'zlashtirib olish lozim.

Matabgacha ta'limg tashkilotida tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni ko'zata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri taqlil qilib, unga ta'sir etuvchi vositalarni qo'llay oladigan bo'lishi kerak. Davlat ahamiyatiga molik bunday vazifani amalga oshirishda matabgacha ta'limg tashkiloti muhim rol o'ynaydi. Buning uchun har bir tarbiyachi o'zini talab va nazorat qila bilishi davlatimiz matabgacha ta'limg tashkiloti oldiga qo'ygan talablarni amalga oshirishi va pedagogik qobiliyaga va maxoratga ega bo'lislari shart. Pedagogik mahorat kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariiga ega.

Pedagog eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak. Hozirgi zamon pedagogi fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo'llay olishi taqozo etiladi. Qobiliyat-shaxsnинг individual-psixologik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish sub'ektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig'indisiga aytildi, zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallah dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo'lgani sababli, shaxsnинг boshqa sifatlari va xususiyatlariga, ya'nii aql sifatlariga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg'ulariga qarama- qarshi qo'yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo'yilishi kerak. Qobiliyatni inson tug'ma, tabiat in'omi sifatida tayyor holida olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi. Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb atadi va uning ettita jihatini ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini pedagog pedagogik





mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan taxlil qilishimiz mumkin. Lekin tarbiyachi ishlarga asoslanib, bolalarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash ishini ma'lum bir maqsad bilan samaraliroq amalga oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi induviduallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan kishi induvidualligiga asoslanadi. Pedagog eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun pedagogdan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bolish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: «Istiqlol», 2006.
2. “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagagi 4-sonli hay’at yig’ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
3. Г.В.Елдашева, Г.Қ.Каримова. “Тарбиячининг касбий маҳорати ва компитентлиги” модули. Т. 2018й. 155 бет.
4. www.ziyonet.uz.
5. www.google.uz

